



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 344 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
Nabijonova Feruza Valijon qizi	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
O'rinova Nilufar Muxammadovna	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
Tashpulatova Nodira Olimjon qizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
Umbarova Nasiba Xolboy qizi	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
Abduraxmanova Charos Burxanovna	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
Allanazarova Sadoqat Azimovna	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
Jumanov Sherzod Saloyevich	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
Qahramonova Xumora Qahramonovna	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li
	Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli 196 Salomova Nargiza Sattorovna
	Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna
	Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi
	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari 216 Uralova Nurxon Maxadovna
	Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna
	Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi
	Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich
	Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович
	Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек
	Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi
	Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova
	Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna
	Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna
	Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi
	Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li
	Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi
	Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi
	Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi
	Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari 286 Xaytova Farida Kuchkarovna



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinoz</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otabek Tuvalovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адига Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	

KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING CHET TILIDA MULOQOT QILISH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi

Webster universiteti bitiruvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi ta'lim jarayonida chet tilini o'rganish faqat grammatik qoidalarni bilish yoki so'z boyligini yodlash bilan cheklanib qolmaydi. Asosiy maqsad o'quvchilarda chet tilida erkin fikr bildirish, savol berish, suhbatga kirishish hamda turli kommunikativ vaziyatlarda mos nutq birliklaridan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Kommunikativ yondashuv o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Unda juftlik va guruhli ishlar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar, dialoglar, munozaralar hamda loyiha asosidagi topshiriqlar orqali real muloqot muhiti yaratiladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, chet tili ta'limi, muloqot ko'nikmalari, nutqiy kompetensiya, interaktiv metodlar, dialogik nutq, kommunikativ kompetensiya.

Abstract: This article analyzes, from a scientific and pedagogical perspective, the issue of improving students' foreign language communication skills through the communicative approach. In contemporary education, learning a foreign language is not limited to mastering grammatical rules or memorizing vocabulary. The primary goal is to develop students' ability to express their ideas freely, ask questions, engage in conversations, and use appropriate language forms in various communicative situations. The communicative approach transforms learners into active participants in the educational process by creating an authentic communicative environment through pair and group work, role-playing activities, problem-based situations, dialogues, discussions, and project-based tasks.

Key words: communicative approach, foreign language education, communication skills, speech competence, interactive methods, dialogic speech, communicative competence.

Аннотация: В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируется вопрос совершенствования навыков общения учащихся на иностранном языке на основе коммуникативного подхода. В современном образовательном процессе изучение иностранного языка не ограничивается только знанием грамматических правил или заучиванием словарного запаса. Основная цель заключается в формировании у учащихся способности свободно выражать свои мысли на иностранном языке, задавать вопросы, вступать в диалог и использовать соответствующие речевые единицы в различных коммуникативных ситуациях. Коммуникативный подход превращает учащегося в активного участника образовательного процесса, создавая реальную речевую среду посредством парной и групповой работы, ролевых игр, проблемных ситуаций, диалогов, дискуссий и проектных заданий.

Ключевые слова: коммуникативный подход, обучение иностранному языку, навыки общения, речевая компетенция, интерактивные методы, диалогическая речь, коммуникативная компетенция.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida chet tillarini o'rganish har bir yosh avlod vakili uchun muhim ehtiyojga aylandi. Xalqaro aloqalar, ilm-fan, turizm, texnologiya, biznes va madaniy almashinuv jarayonlari chet tilida samarali muloqot qila oladigan shaxslarni tarbiyalash zaruratini kuchaytirmoqda. Shu sababli zamonaviy chet tili ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarga faqat til tizimini o'rgatish emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda tildan to'g'ri, ravon va maqsadga muvofiq foydalanishga o'rgatishdan iborat.

An'anaviy til o'qitish jarayonida ko'p hollarda grammatika, tarjima, yozma mashqlar va yodlashga ko'proq e'tibor qaratilgan. Bunday yondashuv o'quvchilarga ma'lum nazariy bilimlar beradi, biroq ularning og'zaki muloqotga kirishish, fikrlarini mustaqil bayon etish, suhbatdoshni tushunish va unga munosib javob qaytarish ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Natijada ayrim o'quvchilar chet tilidagi matnni o'qiy oladi yoki grammatik mashqlarni bajara oladi, ammo oddiy muloqot vaziyatida o'z fikrini erkin ifodalashda qiynaladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunikativ yondashuv aynan shu muammoni bartaraf etishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvda til o'rganish jarayoni muloqot orqali tashkil etiladi. O'quvchi tayyor qoidalarni passiv qabul qiluvchi emas, balki fikr bildiruvchi, savol beruvchi, javob qaytaruvchi, bahslashuvchi va hamkorlikda vazifa bajaruvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasi tilni faqat grammatik jihatdan to'g'ri qo'llash emas, balki uni ijtimoiy vaziyatga mos holda ishlata olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi ^[1].

Kommunikativ yondashuv chet tili darslarida o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, ularni erkin muloqotga jalb etish va o'rganilayotgan tilga nisbatan qiziqishini kuchaytirish imkonini beradi. Bu yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar juftliklarda, kichik guruhlarda va jamoaviy shaklda ishlaydi. Ular real hayotga yaqin vaziyatlarda suhbat quradi, rol ijro etadi, muammoni hal qiladi, ma'lumot almashadi va o'z fikrini asoslaydi. Shuning uchun kommunikativ yondashuv bugungi chet tili ta'limida eng muhim metodik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola sifatli-deskriptiv tahlil usuliga asoslanadi. Tadqiqotda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari, metodik xususiyatlari va chet tili darslaridagi amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Asosiy e'tibor o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlar hamda interaktiv faoliyat turlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ til o'qitish nazariyasi, kompetensiyaviy yondashuv va interaktiv ta'lim tamoyillari tashkil etadi. Kommunikativ til o'qitish bo'yicha Canale va Swain tomonidan ishlab chiqilgan modelda kommunikativ kompetensiya grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi orqali izohlanadi ^[2]. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchi til birliklarini bilishi bilan birga, ularni muayyan vaziyatda maqsadga muvofiq hamda mantiqiy izchillik asosida qo'llay olishi kerak.

Maqolada adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Kommunikativ yondashuv asosida qo'llaniladigan dars faoliyatlari – dialoglar, rolli o'yinlar, savol-javob mashqlari, axborot almashish topshiriqlari, muammoli vaziyatlar, guruhli munozaralar va loyiha ishlari metodik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

Birinchidan, faoliyat turi o'quvchini real yoki real hayotga yaqin muloqotga jalb qilishi kerak.

Ikkinchidan, topshiriq o'quvchidan faqat tayyor javobni takrorlashni emas, balki mustaqil fikr bildirishni talab qilishi lozim.

Uchinchidan, muloqot jarayonida o'quvchilar o'zaro axborot almashishi, savollar berishi, aniqlashtirishi va fikrni davom ettirishi kerak.

To'rtinchidan, dars jarayonida o'qituvchi asosiy nutq egasi emas, balki tashkilotchi, yo'naltiruvchi va kuza-tuvchi vazifasini bajarishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ yondashuv o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Ushbu yondashuv o'quvchini tilni o'rganish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Dars davomida o'quvchi faqat tinglovchi emas, balki suhbatdosh, hamkor va ijodiy ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Kommunikativ yondashuvning eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, u dars jarayonida tabiiy muloqot muhitini yaratadi. Masalan, "At the Shop", "At the Doctor's", "Asking for Directions", "My Future Plans", "Travelling Abroad" kabi mavzularda tashkil etilgan rolli o'yinlar o'quvchilarni kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarga tayyorlaydi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilar til birliklarini alohida yodlamaydi, balki ularni amaliy nutq jarayonida qo'llaydi. Juftlik va guruhli ishlar kommunikativ yondashuvning asosiy shakllaridan biridir. Juftlikda ishlash o'quvchilarga qisqa vaqt ichida ko'proq gapirish imkonini beradi. Odatda, an'anaviy darslarda o'qituvchi ko'proq gapiradi, o'quvchilarning nutqiy faolligi esa cheklangan bo'ladi. Kommunikativ darslarda esa bir vaqtning o'zida bir nechta juftlik yoki guruh faol muloqotga kirishadi. Bu esa har bir o'quvchining gapirish vaqtini oshiradi.

Guruhli ishlar orqali o'quvchilarda hamkorlik qilish, o'z fikrini himoya qilish, boshqalarning fikrini tinglash va umumiy qarorga kelish ko'nikmalari shakllanadi. Masalan, "The Best Way to Learn English", "Healthy Lifestyle", "Advantages and Disadvantages of Social Media" kabi mavzularda guruhli munozaralar tashkil etilganda, o'quvchilar o'z qarashlarini chet tilida asoslashga harakat qiladi. Bu jarayonda ular yangi so'zlar, bog'lovchi iboralar, fikr bildirish va kelishmovchilikni ifodalash vositalaridan foydalanadi. Kommunikativ yondashuv o'quvchilarning

motivatsiyasini ham oshiradi. O'quvchi darsda tilni faqat baho olish uchun emas, balki real muloqot vositasi sifatida qo'llashni boshlaydi. Littlewood ta'kidlaganidek, kommunikativ faoliyatlar o'quvchilarga tilni mazmunli kontekstda qo'llash imkonini beradi va ularni til o'rganish jarayonida faolroq bo'lishga undaydi^[3]. O'quvchi o'z fikrini ifodalashga muvaffaq bo'lganida, unda o'ziga ishonch shakllanadi. Bu ishonch keyingi muloqot faoliyatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikativ yondashuvda xatolarga munosabat ham muhim ahamiyatga ega. An'anaviy darslarda xato ko'pincha salbiy hodisa sifatida baholanadi. Kommunikativ darslarda esa xato o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qaraladi. O'qituvchi o'quvchini har bir xato uchun darhol to'xtatib qo'ymasligi kerak. Aks holda, o'quvchi gapirishdan cho'chib qolishi mumkin. Nutqiy faoliyat davomida o'qituvchi umumiy kuzatuv olib borishi, asosiy xatolarni qayd etishi va mashg'ulot yakunida ularga izoh berishi maqsadga muvofiqdir. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda strategik kompetensiya ham muhim o'rin tutadi. O'quvchi biror so'zni bilmasa, uni boshqa so'zlar bilan tushuntirish, sinonimlardan foydalanish, savol berish yoki suhbatdoshdan yordam so'rash orqali muloqotni davom ettira olishi kerak. Bu ko'nikma real hayotiy muloqotda nihoyatda muhimdir. Chunki chet tilida muloqot qilayotgan shaxs har doim ham barcha so'zlar va grammatik shakllarni mukammal bilmaligi mumkin. O'qituvchining vazifasi kommunikativ yondashuvda tubdan o'zgaradi. U faqat bilim beruvchi emas, balki muloqot jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi shaxsga aylanadi. O'qituvchi dars uchun mavzuni tanlaydi, zarur til materiallarini tayyorlaydi, topshiriqlarni tushuntiradi, o'quvchilar faoliyatini kuzatadi va yakunda tahliliy fikr bildiradi. Harmerning fikricha, samarali til o'qituvchisi darsda turli rollarni bajaradi: tashkilotchi, kuzatuvchi, yordamchi, maslahat beruvchi va baholovchi^[4].

Kommunikativ yondashuvni samarali qo'llash uchun topshiriqlar o'quvchilarning yoshiga, til darajasiga va qiziqishlariga mos bo'lishi zarur. Masalan, boshlang'ich darajadagi o'quvchilar uchun oddiy savol-javoblar, rasm asosida gap tuzish, tanishtirish dialoglari va qisqa rolli o'yinlar samarali bo'ladi. O'rta darajadagi o'quvchilar uchun esa muammoli vaziyatlar, qisqa munozaralar, loyiha ishlari va taqdimotlar foydali hisoblanadi. Kommunikativ yondashuvda autentik materiallardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Reklama matnlari, xaritalar, menyular, jadvallar, e'lonlar, qisqa videolar va audio suhbatlar o'quvchilarga tilni real kontekstda tushunish imkonini beradi. Masalan, restoran menyusi asosida buyurtma berish dialogi, xarita asosida yo'l so'rash yoki mehmonxona e'loni asosida xona band qilish mashqi o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi.

Shu bilan birga, kommunikativ yondashuvni qo'llashda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Birinchidan, ayrim o'quvchilar xato qilishdan qo'rqadi va gapirishda sust bo'ladi. Bunday holatda o'qituvchi ijobiy psixologik muhit yaratishi, xatolarni keskin tanqid qilmasligi va kichik muvaffaqiyatlarni ham rag'batlantirishi kerak. Ikkinchidan, ayrim guruhlarda kuchli o'quvchilar faolroq bo'lib, sust o'quvchilar chetda qolib ketishi mumkin. Buning oldini olish uchun har bir guruh a'zosiga aniq vazifa berish lozim. Uchinchidan, o'quvchilar ona tilidan haddan tashqari ko'p foydalanishi mumkin. Buni kamaytirish uchun o'qituvchi zarur iboralar ro'yxatini oldindan taqdim etishi va dars davomida chet tilidan foydalanishga undashi kerak.

Kommunikativ yondashuv baholash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi. Agar darsning asosiy maqsadi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'lsa, baholash faqat grammatik to'g'rilik bilan cheklanmasligi kerak. O'quvchining fikrni yetkaza olishi, suhbatda ishtirok etishi, savol berishi, javob qaytarishi, talaffuzi, lug'at boyligi, nutq ravonligi va vazifani bajarish darajasi ham hisobga olinishi zarur. Brown ta'kidlaganidek, tilni baholash jarayonida real kommunikativ qobiliyatni o'lchash muhim o'rin tutadi^[5].

Umuman olganda, kommunikativ yondashuv o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirishda samarali metodik asos bo'lib xizmat qiladi. U o'quvchini faol nutqiy jarayonga jalb etadi, darsni jonlantiradi, tilni real hayot bilan bog'laydi va o'quvchilarda chet tilidan foydalanishga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi.

XULOSA

Kommunikativ yondashuv chet tili ta'limining zamonaviy va samarali yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv o'quvchilarning muloqot qilish, fikr bildirish, suhbatni davom ettirish, savol berish, javob qaytarish va ijtimoiy vaziyatga mos nutq birliklaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularda chet tilida gapirishga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va til o'rganish jarayonini mazmunli qiladi. Juftlik ishlari, guruhli topshiriqlar, rolli o'yinlar, munozaralar, axborot almashish mashqlari va loyiha ishlari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim metodik vositalar hisoblanadi.

Kommunikativ yondashuvning samaradorligi o'qituvchining darsni to'g'ri rejalashtirishi, o'quvchilar darajasiga mos topshiriqlar tanlashi, ijobiy muloqot muhitini yaratishi va konstruktiv fikr-mulohazalar berishiga bog'liq. Agar dars jarayonida o'quvchi erkin fikr bildirishga, xato qilishdan qo'rqmaslikka va tildan amaliy foydalanishga o'rgatilsa, uning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasi bosqichma-bosqich takomillashadi. Xulosa



qilib aytganda, kommunikativ yondashuv chet tilini o'qitishda nafaqat metod, balki o'quvchini real muloqotga tayyorlovchi pedagogik strategiyadir. Shu sababli chet tili darslarida kommunikativ faoliyatlardan muntazam va tizimli foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hymes, D. On Communicative Competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
2. Canale, M., & Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1980.
3. Littlewood, W. Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
4. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. London: Longman, 2007.
5. Brown, H. D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. New York: Pearson Education, 2004.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.